


VIZUAL VA TARQATMA MATERIALLAR

KLASTER

Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yoldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularning "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugaguncha davom etishi mumkin.



Muhokama uchun klasterlar bilan almashadilar.

1-ilova

B.B.B. metodiga asoslangan tarqatma materiallar

	Tushuncha	Bilaman	Bildim	Bilmayman
1	Vektor.			
2	Vektorlarni qo'shish va ayirish.			
3	Vektorlarni songa ko'paytirish.			
4	Nol vector			

TESTLAR

Topshiriqlar	To'g'ri javob	Muqobil javob	Muqobil javob	Muqobil javob
Qanday vektorlar kollinear deb	*Bitta to'g'ri chiziqda yoki parallel to'g'ri chiziqlarda	Bitta to'g'ri chiziqda yotuvchi	Parallel to'g'ri chiziqlarda yotuvchi $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlar	Ikitta to'g'ri chiziqda yoki parallel to'g'ri chiziqlarda

ataladi?	yotuvchi $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlar kollinear vektorlar deb ataladi.	$\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlar kollinear vektorlar deb ataladi.	kollinear vektorlar deb ataladi.	yotuvchi $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlar kollinear vektorlar deb ataladi.
Qanday vektorlar komplanar deb ataladi?	*Bitta tekislikda yoki parallel tekisliklarda yotuvchi vektorlar komplanar vektorlar deb ataladi.	Bitta tekislikda yotuvchi vektorlar komplanar vektorlar deb ataladi.	Parallel tekisliklarda yotuvchi vektorlar komplanar vektorlar deb ataladi.	Ikki tekislikda yoki parallel tekisliklarda yotuvchi vektorlar komplanar vektorlar deb ataladi.
Qanday vektorlar teng deb ataladi?	* $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlar kollinear, bir xil yo`nalgan va uzunliklari teng bo`lsa, ular teng vektorlar deb ataladi.	$\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlar kollinear, bir xil yo`nalgan bo`lsa, ular teng vektorlar deb ataladi.	$\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlar kollinear, uzunliklari teng bo`lsa, ular teng vektorlar deb ataladi.	$\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlar bir xil yo`nalgan va uzunliklari teng bo`lsa, ular teng vektorlar deb ataladi.
Vektorlar ustida qaysi amallar chiziqli amallar deb ataladi?	*Vektorlar ustida chiziqli amallar deb, vektorlarni qo`shish va ayirish hamda vektorni songa ko`paytirishga aytiladi.	Vektorlar ustida chiziqli amallar deb, vektorlarni qushish va vektorni songa ko`paytirishga aytiladi.	Vektorlar ustida chiziqli amallar deb, ayirish hamda vektorni songa ko`paytirishga aytiladi.	Vektorlar ustida chiziqli amallar deb, vektorlarni qushish va ayirishga aytiladi.
Ikki vektorning skalyar ko`paytmasi deb nimaga aytiladi?	*Ikki $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorning skalyar ko`paytmasi deb, bu vektorlar uzunliklarini ular orasidagi burchak kosinusiga ko`paytmasiga teng bo`lgan skalyarga (songa) aytiladi.	Ikki $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorning skalyar ko`paytmasi deb, bu vektorlar uzunliklariga teng bo`lgan skalyarga (songa) aytiladi.	Ikki $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorning skalyar ko`paytmasi deb, bu vektorlar orasidagi burchak sinusiga ko`paytmasiga teng bo`lgan skalyarga (songa) aytiladi.	Ikki $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorning skalyar ko`paytmasi deb, bu vektorlar uzunliklarini ular orasidagi burchak sinusiga ko`paytmasiga teng bo`lgan skalyarga (songa) aytiladi.